

## MATN DERIVATSIYASIDA KO'MAKCHILI QURILMALARNING O'RNI

*Sh.N.Turniyazova,  
SamDCHTI dotsenti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sintaktik derivatsiya jarayonida ko'makchili qurilmalarning o'rni, ularning operatorlik maqomi, lingvistik tabiati o'zbek tili materiallari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqolada ko'makchili qurilmalar derivatsiya operatori sifatida nafaqat murakkab sintaktik qurilmalarni, balki abzatslararo bog'lanishni ta'minlashi dalillangan.

**Kalit so'zlar:** derivatsiya, operator, ko'makchili qurilma, murakkab sintaktik qurilmalar, operand, hosila.

Ma'lumki, murakkab sintaktik qurilmalar komponentlari ularning turiga qarab turli bog'lovchi vositalar yordamida sintaktik aloqaga kirishadi. An'anaviy tilshunoslikda teng komponentli MSQlar teng bog'lovchilar yordamida, tobe komponentli MSQlar ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida bog'lanishi ta'kidlangan. Adabiyotlarda shuning uchun, shu sababli kabi qurilmalar sabab bog'lovchilari guruhiga kiritilgan [1.386].

Ammo boshqa bir guruh tilshunoslar bu qurilmalarni ergashtiruvchi bog'lovchilar emas, balki ko'makchili qurilmalar deb izohlashayapti [2.126]. Jumladan, N.Mahmudovning fikricha, ko'makchili qurilmalarni ergashtiruvchi bog'lovchilar sifatida talqin etish noto'g'ri, bu rus tilidan nusxa olishning oqibatidir [2. 126].

Olimning fikriga qo'shilsa bo'ladi, zero, shuning uchun, shu tufayli kabi qurilmalar olmosh+ ko'makchi bo'lganligi sababli ularni ko'makchili qurilma deb qarasaq nazarimizda xato bo'lmaydi.

Ayrim rus tilshunosligiga doir adabiyotlarda esa shuning uchun, shu tufayli (poetomu) kabi ko'makchili qurilmalarni ravish turkumiga mansubligi ta'kidlangan. Mazkur adabiyotlarda yozilishicha, ular bog'lovchilar ham emas, balki ravishlardir. Tarkibida bunday so'zlar ishtirok etgan murakkab sintaktik

qurilmalar bog'lovchisiz qo'shma gaplar sirasiga kiritilgan. Masalan: On ne prishyol, poetomu ya poshyol odin [3].

Fikrimizcha, bu qarash birmuncha izohtalab ko'rinadi. Chunki shuning uchun, shu tufayli (poetomu) kabi ko'makchili qurilmalar tarkibida rus tilida ko'makchi bo'lmasada, rus tilshunosligi nuqtai nazaridan uni ravish emas, bog'lovchi deb qarasaq, maqsadga muvofiqroq bo'ladi. Va tabiiyki, tarkibida bunday so'z ishtirok etgan murakkab sintaktik qurilmalar komponentlari teng emas, balki tobe munosabatga kirishadi. Yuqoridagi misol buning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi. chunki aynan poetomu so'zi ishtirok etayotganligi uchun ham mazkur MSQ tobe munosabatga kirishayapti. Agar biz bu so'zni MSQ tarkibidan chiqarib tashlasak, o'shandagina u teng munosabatli MSQga aylanishi mumkin: On ne prishyol, ya poshyol odin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ko'makchili qurilmalar makromatn komponentlarining sintaktik bog'lanishini ta'minlovchi morfologik vosita sanaladi. Ularning sintaktik vazifasi ham murakkab sintaktik qurilmalar komponentlarining, ham abzats komponentlarining bog'lanishida, ham abzatslararo bog'lanishda namoyon bo'ladi. Fikrimiz dalilini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

*1. Saodat ko'pdan beri ashula aytmagan edi, shuning uchun ham u jaranglagan ovozlarga qo'shilib ashula aytgisi keldi (Ibrohim Rahim).*

*2. Shone'mat Rossiyadan ko'chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi (O'.Hoshimov. Urushning so'nggi qurboni).*

*3. Bu hodisani bundan o'n yil oldin mana shu Karamnasa bo'yida otasi Bobur ham ko'rganini va o'z esdaliklarida yozib qoldirganini Humoyun bilardi. Bunaqa irimlarga ishonmaydigan Bobur Mirzo hozir Humoyun turgan joyini qo'shinga qarorgoh qilib tanlab, bir hafta turgan va shu atrofdagi yovlarni yengib, Agraga g'alaba bilan qaytgan edi.*

*Shuning uchun Humoyun taqvodorlarning irimidan ko'ra otasining tajribasiga ko'proq tayandi. Uch tarafi daryo bilan to'silgan baland tepaliklar*

*uni dushmanlaridan asraydigandek tuyuldi. Beklar ham «faqat qarorgohning janubi-sharq tomoniga soqchilar qo'yilsa, kechalar tinch uxlash mumkin» deyishdi (P. Qodirov. Avlodlar dovoni).*

Ko'rinib turganidek, ko'makchili qurilmalar keltirilgan misollarning birinchisida tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar qismlarini, ikkinchi misolda abzats komponentlarini bog'lashda xizmat qilayapti. Uchinchi misolda esa abzatslararo bog'lanishni ta'minlayapti.

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ko'makchili qurilmalar ham vazifasiga ko'ra bog'lovchilarga o'xshaydi. Ular matn komponentlarini bir biroviga sintaktik jihatdan bog'lab, derivatsion jarayonda operator vazifasini bajaradi:

*Zamon notinch, kechalari ko'chada yurish xavotirli edi. Shu sababli Hirot aholisi qosh qorayishi bilan ko'cha eshiklarini ichidan zanjirlab olishar edi. Amaldorlar yashaydigan «Injil» yoqasidagi bu chekka mahalla ahli ham kechasi bosh suqib ko'chaga chiqa olmas edi. Hozir ham ozoda ko'chalar, sahniga gul va sarv ddaraxtlari o'tqazilgan shinam hovlilar suv quygandek jim-jit (M.Osim. Zulmat ichra nur).*

Keltirilgan matn to'rt komponentdan iborat bo'lib, har bir komponent derivatsiya operandlari sanaladi. Mazkur operandlarning har qaysisi hosila struktura sifatida gavdalanayapti. Aynan ana shu hosila strukturalar yig'indisi hosilalardan hosila – katta derivatni, ya'ni matnni yuzaga keltirayapti. Matnning tyanch strukturasini esa uning birinchi komponenti tashkil qilayapti. Chunki mazkur jumlaning mazmuniy salmog'i boshqalarnikidan ko'ra yuqoriroqdir. Buni abzatsning qolgan komponentlari unga ergashib, uning mazmunini to'ldirib kelayotganligida ham ko'rishimiz mumkin. Matnning tayanch strukturasini boshqa operandlar bilan sintaktik jihatdan bog'lab turuvchi vosita esa matnning ikkinchi komponenti tarkibida kelgan shu sababli ko'makchili qurilmadir. Shuning uchun ham ayni vaziyatda ko'makchili qurilma derivatsiya operatori vazifasida kelayapti. Buni biz sxemada quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

1. Hosila (tayanch) struktura = D1(derivat)
2. Hosila struktura = D2 (derivat), (operator – shu sababli)

3. Hosila struktura = D3 (derivat)

4. Hosila struktura = D4 (derivat)

5. Hosilalardan hosila (D1 + D2 + D3 + D4) = D (matn).

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yuqorida ham guvohi bo'lganimizdek, ko'makchili qurilmalar boshqa ko'rib o'tilgan vositalar kabi nafaqat abzats tarkibidagi komponentlar bog'lanishini, balki abzatslararo bog'lanishni ham ta'minlay oladi. Bunday vaziyatda ko'makchili qurilmalarning matn sintaktik bog'lanishini ta'minlovchi vosita sifatida salmog'i yana bir pog'ona ortadi. Negaki, bu holatda sintaktik derivatsiya operandlari sifatida endi jumlar emas, balki abzatslar faollik ko'rsata boshlaydi. Operandlarning sintaktik bog'lanishini esa derivatsiya operatori sifatida ko'makchili qurilmalar ta'minlaydi:

*Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtoq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo'lar edi.*

*Shuning uchun ham qo'limizga tosh, kesak olib fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko'zlarini o'pirib tushirardi (Oybek. Fanorchi ota).*

Keltirilgan misolda derivatsiya operandlarining sintaktik bog'lanishini shuning uchun ko'makchili qurilmasi ta'minlayotgani izoh talab qilmaydi, albatta. Operator sifatida faollik ko'rsatayotgan bu vosita ayni paytda ikki abzatsni bog'lab turganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Demak, ko'makchili qurilmaning aynan ana shu vazifasi uni ayni paytda operator sifatida faollashtirayapti. Boshqacha aytganda, agar bu abzatslarni ayro tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur vosita operator maqomida kela olmaydi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, makromatn derivatsiyasida hosila strukturaning ko'makchili qurilmalar yordamida shakllanishi o'z sintaktik qurilishiga ko'ra tobe komponentli murakkab sintaktik kurilmalarga o'xshaydi. Ammo o'xshash sifatlariga qaramay, ko'makchili qurilmalar yordamida hosil bo'lgan abzatslararo

bog‘lanishni tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar qismlarining bog‘lanishi bilan bir xil deb bo‘lmaydi. Chunki bir qator sintaktik belgilarning mos kelishi mazkur sintaktik birliklarning struktur-semantik o‘xshashligi ham borligidan dalolat bermaydi. Eng asosiy farq esa, yuqorida ham ko‘rib o‘tganimizdek, ularning derivatsion tahlilida operator va operandlarini belgilashda ko‘rinadi.

Ko‘makchili qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlardan biri ularning nominativ funktsiyaga ega emasligidir. Bu bilan ular bog‘lovchi, yuklama kabi matn derivatsiyasini shakllantiruvchi boshqa morfologik vositalarga o‘xshaydi. Biroq nominativ funktsiyaga ega emasligi ko‘makchili qurilmalarning matn komponentlarining sintaktik munosabatini shakllantira olishiga to‘siq bo‘la olmaydi. Ularning bu xususiyati matn tarkibiy qismlarining mazmuniy bog‘lanish xarakterini yaqqol ko‘rsatib bera oladi. Ko‘makchili qurilmalarning matn derivatsiyasidagi sintaktik va semantik o‘rni haqida gapirar ekanmiz, bu vaziyatda kontekstning roli ham kichik emasligini ta’kidlab o‘tish lozim. Negaki, kontekst sintaktik munosabatlarning xarakteriga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Matn komponentlarining pragmatik munosabatlari ham aynan ana shu kontekst davomida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tursunov U., Muxtorov A. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1992. – 386-bet.
2. N. Mahmudov, A. Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent, 1995. – 129-bet
3. Запятыя при слове “поэтому”. - gramatik.ru.
4. Turniyazov, B. N. (2008). Derivation of complex syntactic constructions with equal components in Present day Uzbek language. Samarkand, Uzbekistan.
5. Турниязов, Б. Н. (2021). ФАКТИВЛИК АСОСИДАГИ КАУЗАТСИЯ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(1-1).

6. Turniyazov, B., & Saidova, S. (2020, December). ACTIVITY IN CAUCASUS. In Конференции.

7. Хайруллаев, Х. (2018). Нутқ бирликларининг иерархик муносабати хусусида айрим мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(1 (66)), 43-49.

8. Хайруллаев, Х. (2017). Яна нутқнинг минимал бирлиги ҳақида ёки гап ва жумла масаласи хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 25-29.

9. Хайруллаев, Х. З. (2012). иерархические отношения единиц фонематического уровня с единицами морфематического уровня. Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика, (4), 29-35.

10. Mamirova, D. S. (2022). ADVERTISING IS A SOCIO-LINGUISTIC STUDY AS AN OBJECT. ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ, 109.

11. Mamirova Dilnoza Shirinboyevna (2022). FEATURES OF ACCOUNT WORDS IN ADVERTISING TEXTS. Science and innovation, 1 (JSSR), 151-154. doi: 10.5281/zenodo.7299742

12. Туробов, А. (2016). Қўшма сўз компонентлари хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 55-57.

13. Турниязов, Н., & Туробов, А. (2017). Тил бирликларининг нутққа ко"чирилиши масаласи билан боғлиқ баъзи мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(3 (64)), 5-9.

